

ANTIK DAVR XORAZM VOHASINING HUNARMANDCHILIK SOHALARI

Tajimuratov Doniyor Baxromovich

O'zbekiston milliy universiteti arxealogiya yo'nalishi 2-bosqich magistranti

tajimuratovdoniyor@gmail.com

+998 99 650-19-19

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazmning antik davridagi hunarmandchilik sohalari, M.G.Vorobeva va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlari, kulolchilik sohasida yuz began o'zgarishlar, Qo'yqirilganqal'a yodgorligidan topilgan xumdonlar, mil.avv. IV-II asrlarga tegishli sopol idishlarning o'ziga xos xususiyatlari, sopol idishlarning ranggi, mitti sopol idishlar, metal hunarmandchiligi, hunarmandchilikning boshqa sohalari, Amudaryo xazinasi haqida ma'lumotlar beriladi

Kalit so'zlar: Xorazm vohasi, **hunarmandchilik sohalari, kulolchilik,** Mil.avv. IV-II asrlarga oid sopol idishlarning xarakterli belgilari, xumchalar, Antik davr qadimgi Xorazm kulolchiligi, metal hunarmadchligi, hunarmandchilikning boshqa sohalari, Amudaryo xazinasi

Mil.avv. IV asrda qadimgi Xorazm yozma manbalarda mustaqil davlat sifatida tilga olingan¹. M.G.Vorobeva o'z tadqiqotda bu davrni qang' davri sifatida berib, ikki bosqichga ajratadi: ilk qangyuy davri mil.avv. IV-II asrlarni, so'nggi qangyuy davri esa mil.avv. II va milodiy I asrlarni o'z ichiga olgan². Bu ikki bosqichdagi kulolchilik sohasida bo'lgan o'zgarishlarni aniqlagan. Tangalar tahlili asosida E.V.Rtveladze mil.avv. II asrning oxirida qadimgi Xorazm siyosiy hayotida

¹ Болелов С.Б. Ранний этап становления ремесленного производства на территории Хорезма. – С. 11.

² Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода. – С. 144.

yuz bergan o‘zgarishlarni aniqlagan³. Demak, siyosiy hayotda yuz bergan o‘zgarishlar iqtisodiy hayotga, shuningdek, kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarilishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmagan. Mil.avv. IV asrda qadimgi Xorazmda shahar hayoti jonlanib, savdo va hunarmandchilik taraqqiy etgan. Kulolchilik sohasida katta yutuqlarga erishilgan. Maxsus hunarmandchilik ustaxonalari tashkil qilingan. Har bir kulolchilik markazida 10-12 xumdonlar qurilgan. Mil.avv. IV-II asrlarga oid 13ta xumdon o‘rganilgan. Ularning barchasi ikkipog‘onali, tik mo‘rili bo‘lgan⁴. Bu davrga oid kulolchilik ustaxonasi o‘sha paytda tashlandiq holda bo‘lgan Ko‘zaliqir yodgorligida qurilgan. Bu ustaxona mil.avv. IV asrlarga oid bo‘lib, 8ta xumdon va xo‘jalik chiqindilari bo‘lgan o‘ralar topilgan⁵. Xumdonlar juft qilib joylashtirilgan. Bu kulolchilik ustaxonasi Qal’aliqir II yodgorligidan 7 km. uzoqlikda joylashgan. Tadqiqotchilar fikricha, bu ustaxona diniy markaz bo‘lgan Qal’aliqir II ni kulolchilik mahsulotlari bilan ta’minlagan⁶.

Qo‘yqirilgan qal’a atroflaridan ham 5 dan 8 tagacha xumdonlari bo‘lgan kulolchilik ustaxonasi qoldiqlari topilgan. Bunday ustaxonalarda turar joy izlari topilmagan. Ular suv yoqalarida va yirik shaharlarga yaqin joylarda qurilgan. Shularni inobatga olib tadqiqotchilar, bunday ustaxonalarda hunarmandlar mavsumiy ishlab, faqat buyutma asosida ma’lum vaqtgina ishlagan bo‘lishlari mumkin degan fikrni ilgari suradilar⁷. Qadimgi Xorazmda hunarmandchilik ustaxonalari yirik shaharlar yaqin bo‘lgan joylarda qurilgan. Faqat Xazorasp qal’asi ichida mil.avv. IV asrlarga oid ikkita xumdon, kvadrat xom g‘isht bilan to‘shalgan maydon izi va ko‘milgan xum topilgan⁸.

Mil.avv. IV asrdan boshlab, kulolchilik hunarmandchiligidagi Xorazmning mahalliy o‘ziga xosligi yorqin namoyon bo‘lgan. Kulolchilik mahsulotlarining

³ Хорезм в истории государственности Узбекистана. – С. 70-71.

⁴ Болелов С.Б. Ранний этап становления ремесленного производства на территории Хорезма. – С. 11.

⁵ Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода. – С. 200-202.

⁶ Болелов С.Б. Ранний этап становления ремесленного производства на территории Хорезма. – С. 13.

⁷ Болелов С.Б. Гончарные производства Средней Азии во второй половине I тыс. до н.э. - первой половине I тыс. н.э. (структуря и система размещения) // РА. 2006. № 3. – С. 122.

⁸ Воробьева М.Г., Лапиров-Скобло М.С., Неразик Е.Е. Археологические работы в Хазараспе в 1958–1960 гг. // МХЭ. М.: Наука, 1963. Вып.6. – С. 168-170.

ishlanish texnikasi takomillashgan va tashqi ko‘rinishi tubdan o‘zgargan. Sopol idishlarning turlari ko‘paygan⁹. Mil.avv. IV-III asrlardan Xorazm hududida kulollar oyoq charxini qo‘llay boshlaganlar¹⁰. Kulolchilik mahsulotlarining loyiga alohida ahamiyat berilgan. Uni yaxshilab pishitib, keyinchalik o‘choqda sopol idishlar qizg‘ish tusga kirdi pishirilgan va lentasimon tarzda bo‘yalgan¹¹. Asosiy idishlar och, qizil-jigarrang va jigarrang bilan qoplangan. Yo‘l-yo‘l, doira va spiralsimon tarzda naqshlar berilgan. Sopol idishlarning tashqi tomoni pardozlangan. Ko‘pchilik idishlarning qorin yoki bo‘yin qismlari tirlangan yoki bo‘rtib chiqqan valik bilan bezak berilgan. Ularga tamg‘a yoki belgilarni pishirilmasdan oldin bosilgan¹². Bunday sopol idishlar Qo‘yqirilganqal’aning quyi qatlamidan, Qal’aliqir 1 da va Ko‘xna-Uaz qal’alaridan topilgan.

Mil.avv. IV-II asrlarga (ilk kangyuy davr – M.G.V.) oid sopol idishlarning xarakterli belgilari:

1. Tuvaksimon xum va xumchalarning bo‘yin qismiga to‘g‘ri to‘rburchak va uchburchaklar chizilib, ularning ichi shaxmat tarzda – navbatma-navbat qizil va jigirrang bilan bo‘yalgan. Bunday bezak faqat shu davr uchun xos bo‘lgan.
2. Shu davrdan boshlab sopol idishlar sirlana boshlangan¹³.
3. Sopol idishlarga turli tamg‘alar bosish urf bo‘lgan.
4. Xum va xumchalarning qorin qismi spiralsimon bezaklar bilan bezatilgan. Spiralsimon bezaklar shu davrdan boshlanib, keyingi davrlarda ham davom etgan.
5. Ko‘za, riton, suvdon kabi yangi tur sopol idishlar paydo bo‘lgan.
6. Xum, xumcha va tuvaklarning ishlanish shakli o‘zgargan.
7. Oyoq bilan ishlanadigan charxdan foydalana boshlaganlar¹⁴.

⁹ Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода. – С. 84.

¹⁰ Гуломов Я.Ф Хоразмнинг сугорилиш тарихи. – Б.83.

¹¹ Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода. – С. 76.

¹² Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода. – С.86.

¹³ O’sha asar. –B.189.

¹⁴ Толстов С. П. Древний Хорезм. – С. 84.

8. Ko‘zalarning tutqichi gardishini tishlab turgan sher boshi tarzida ishlangan.

9. Sopol ritonlar bo‘lgan. Ularning quyi qismi ot boshi, grifon yoki tuyaning boshi shaklida ishlangan. Ritonlar, M.G.Vorobeva fikricha, mil.avv. IV asrga oid¹⁵ hisoblanadi, chunki keyingi davrlarda ritonlar topilmagan.

10. Suvdonlar (flyagalar) turli bo‘rtma rasmlar bilan bezatilgan. Keyingi davrlarda bo‘rtma tasvirli suvdonlarda uchramaydi.

11. Mitti sopol idishlarning turlar ko‘p bo‘lgan. Boshqa davrlarda faqat mitti og‘zi keng tuvakcha ishlangan.

Sopol idishlarning qizil rangda lentasimon tarzda bezatilishi arxaik davr elementlarining mil.avv. IV asrdan keyin ham davom etganligini ko‘rsatadi. Lentasimon tarzda bezatilgan sopol idishlar Ko‘zaliqirning yuqori bosqichidan (mil.avv. V asr) topilgan. Bunday bezatilgan sopol idishlar keyingi davrda butun Xorazm bo‘ylab tarqalgan. Ko‘zaliqir yodgorligining ikkinchi bosqichidan kulolchilik buyumlariga, ayniqsa xumlarga yozuvsular qo‘yila boshlangan¹⁶. Qo‘yqirilgan qal’aning quyi bosqichidan mil.avv. III asrga oid xumga yozilgan yozuv topilgan. Qo‘yqirilgan qal’a sopol idishlariga o‘xshash buyumlar uning atroflaridagi mustahkamlanmagan qishloqlar va sharqiy Xorazmning ko‘pgina yodgorliklaridan ham topilgan. Bunday sopol idish Qal’aliqir 1 yodgorligida ham bo‘lgan. Mitti sopol idishlar kulrang (bo‘z) tuproqdan mohirona yasalib, loyiga yaxshi ishlov berilgan. Ularning aksariatiga tirnalgan holda bezaklar berilib, tashqi qismiga jilo berilgan. Bunday buyumlar ibodat uchun ishlatilgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Mil.avv. IV asrda yirik kulolchilik ustaxonalari bilan birga kichik xususiy ustaxonalar ham faoliyat olib borgan. Uy sharoitida kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Ular tuvak, kosa, tovalarni yasab, ro‘zg‘orda foydalanganlar. Bunday sopol idishlarning loyi tarkibida turli xil qo‘srimchalar uchraydi, ko‘pol ishlangan

¹⁵ Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода. – С. 87.

¹⁶ Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода. – С. 74.

va chala pishirilgan¹⁷. Qo‘lda ishlangan bunday sopol idishlar ko‘proq Xorazm vohasining chegara hududlarida ko‘p topilgan. Tadqiqotchilar buni ko‘chmanchi chorvadorlar bilan bo‘lgan aloqalarning ta’siri deb hisoblashadi, chunki markaziy va yirik shaharlarida ular nihoyatda kam topilgan. Ko‘zaliqir va Dingilji qo‘rg‘onidan qo‘lda yasalgan sopol buyumlar topilgan. Bunday sopol idishlarning loyi yaxshi qorilmagan, tarkibida shamot, mayda shag‘al, ba’zida o‘simpliklar kuli qo‘shilgan. Usti kulrang, ba’zan qizg‘ish angob bilan bo‘yalgan. Ular ovqat pishirish uchun ishlatilgan. Qadimgi Xorazmda xo‘jalik uchun ishlatiladigan sopol buyumlar oq quyuq angob bilan bo‘yalgan bo‘lsa, ovqatlanish uchun ishlatiladigan sopol idishlar qizil-jigarrang angob bilan bo‘yalgan. Mil.avv. II asrdan so‘ng tuvaksimon xumlar uchramaydi. Valiksimon gardishli noksimon xumlar saqlanib qolgan. Bu davrda ularning valiklari aniq qilib ishlanmagan. Xumlardagi spiralsimon bezaklar saqlanib qolgan. Yangi turdagи xumlar paydo bo‘lgan. Ularning qorin qismi keng bo‘lmagan, lekin undan yuqori qismi biroz kengaygan va gardishidagi valikning tashqi tarafi tekis qilib ishlangan¹⁸. Bu davrda sopollar, asosan, oqish angob bilan bo‘yalgan. Sopol idishlarning yoqalari o‘tkir tig‘ bilan to‘lqinsimon yoki zigzaksimon tarzda chizib bezatilgan. Ba’zida bu bezaklar to‘g‘ri chiziqlar bilan ketma-ketlikda chizilgan. Sopol idishlarning gardishlari turlicha ishlana boshlangan. Ular kesimida dumaloq va uchburchak shaklli ko‘rinishga ega bo‘lgan. Xumchalarning qo‘lda ishlangan turi paydo bo‘lgan. Ular yaxshi loydan tayyorlanib, yupqa va nozik ishlangan. Yaxshi pishirilgan. Xumchalarning qorni sharsimon bo‘lib, bo‘yni keng, gardishi qarmoqsimon yoki uchburchaksimon tarzda salgina bo‘rttirib yasalgan. Tashqi qismi oqish angob bilan bo‘yalgan, ba’zida yoqasiga tiralgan yoki kesilgan holda zigzaksimon naqsh berilgan. Bo‘yin va qorni qo‘shilgan joydan 4 ta xochsimon teshik ochilgan. Bunday teshik olovda pishilmasdan oldin qilingan Noksimon tarzda ishlangan xumchalarning tuzilishida o‘zgarish bo‘lmagan, lekin tashqi qismi oqish angob bilan bo‘yalgan va spiralsimon tarzda qizil bo‘yoq bilan

¹⁷ O’sha asar. –B. 135.¹⁸ O’sha asar. –B.127.

naqshlangan. Antik davr qadimgi Xorazm kulolchiligining eng taraqqiy etgan davri hisoblanadi. Chunki xuddi shu davrdagina kulolchilik mahsulotlarini badiiy jihatdan bezatishga alohida ahamiyat berilgan va ular mahorat bilan ishlangan. Mil.avv. II asrning oxiri va milodiy I asrda kulolchilik sohasida ham inqrozlar kuzatilgan. Bu yangi davlat – kushonlar imperiyasining o‘rnatilishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Kushonlar davri milodiy II asrdan IV asrlargacha bo‘lgan davrlarni o‘z ichiga oladi. M.G.Vorobeva o‘z tadqiqotida kushonlar davri sopol buyumlarini Ayozqal’ a 3, Tuproqqal’ a, Kuhna-Uaz yodgorliklar asosida tahlil qilgan. Qizqal’ a, Tuproqqal’ a, Burliqal’ a atroflaridan kushon, afrig‘iylar davriga oid bir necha xumdonlar topilgan. Ularning uzunligi 10 metrdan 50 metrgacha, balandligi 1,5-2 metrni tashkil qilgan¹⁹. Bu yerda yirik hajmdagi xumlar ham ishlab chiqarilgan. Xumlarning shakli va ularning ishlanish texnikasi butunlay o‘zgargan²⁰. Xumlar lentasimon tarzda yoki charxda ishlanib, qo‘lda to‘g‘rilab tuzatilgan. Ular ko‘pincha oqish angob, ba’zida quyuq qizil angob bilan bo‘yalgan. Xumchalarning barchasi tuvaksimon tarzda ishlanib, ularning turlari ko‘paygan. Noksimon xumchalar bu davrda ishlanmagan.

Ko‘za ishlab chiqarish keng tarqalgan. Tadqiqotchilar ko‘zalarning 8 turini aniqlaganlar. Ko‘zalarni tayyorlashda uning loyiga yaxshilab ishlov berib, maydalangan gips va qum qo‘shilgan. Qizil-jigarrang angob bilan bo‘yalib, sirlangan. Ular oq, och sariq yoki pushti angob bilan ham bo‘yalgan. Oqish angob bilan bo‘yalgan ko‘zalarga spiral yoki lentasimon tarzda bezak berilgan²¹. Kulolchilikda buyumlarni sirlash keng qo‘llanilgan.

Milodiy eraning boshlarida kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda biroz o‘zgarishlar kuzatiladi:

1. Kosa va tuvaklar yo‘l-yo‘l tarzda sirlangan.
2. Xumlar qo‘lda ishlangan.
3. Xumchalar, tuvak, suvdon, baqol qo‘lda yasala boshlagan.

¹⁹Андреев Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. – С. 135.

²⁰Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода. – С. 145.

²¹Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода. – С.151.

4. Mitti sopol idishlardan faqat og‘iz keng qilib ishlangan bitta dastali tuvakcha yasalgan.

5. Xumlar bochkasimon tarzda ishlangan.

Metall hunarmandchiligi. Amudaryo havzasi hududlarida hunarmandchilikning boshqa turlari maxsus tadqiqot obyekti sifati o‘rganilmagan bo‘lsada, lekin arxeologik ob’ektlarni o‘rganish jarayonida ular tahlil qilinib, ma’lumotlar berib o‘tilgan. Qadimgi Xorazmda metall hunarmandchiligining rivojlanishi S.R.Bolelov tomonidan o‘rganilgan.

Yirik ixtisoslashgan hunarmandchilik markazlarida, asosan, bozor talablari bo‘yicha ishlangan (Xumbuztepa, Nurum, Dingilja, Lolazor, Saritepa va b.q). Tanga zarb qilish va harbiy qurol tayyorlash bilan, ya’ni davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan ishlar bilan maxsus shug‘ullanadigan hunarmandlar bo‘lgan. Shuningdek, davlat buyurtmalari bo‘yicha ham ish olib borganlar. Bu g‘oyani S.R.Bolelov Qalaliqir 1 yodgorligini o‘rganish asosida ilgari surgan²². Hokim rezidensiyasi sifatida ko‘rilayotgan Qal’aliqir I yodgorligidan topilgan kapitel davlat byurmasi asosida tayyorlangan. Bu fikrni Geradot, Persopol va Behistun qoya toshlaridagi yozma manbalar ham asoslaydi. Metallsozlik hunarmandchiligi metallarni konlaridan qazib olish, rudadan ajratish, ularga ishlov berishdan tortib to turli mahsulotlar yaratishgacha bo‘lgan jarayonlarni o‘zida qamrab olgan. Metallardan, asosan, harbiy, mehnat qurollari, zargarlik buyumlari, tangalar va b.q. tayyorlaganlar. Metall buyumlarni qayta ishslash imkoniyatining mavjudligi va ularning kamyob, qimmatbaho bo‘lganligi sababli eng qadimiylar buyumlarning ixtiro qilinishi vaqtini aniq aytishning imkoni yo‘q. Faqatgina ma’lum bir tasodiflar tufayli saqlanib qolgan metall buyumlar orqali xulosa berish mumkin. Deyarli har bir hududda aholi ehtiyoji uchun ishlab chiqarish, ya’ni katta yoki kichik tarzda turli hunarmandchilik sohalariga oid ustaxonalar tashkil qilingan. Ko‘ktepa yodgorligining markaziy qismidan ilk temir davriga oid bronza quyish ustaxonasi topilgan. Bronzadan

²² Болелов С.Б. Гончарство древнего Хорезма: формы организации ремесла. – С. 71-72.

ishlangan bigiz, igna, bilakuzuk topilgan. Bu yerdan bronza shlaklarining topilishi bronza quyish ustaxonasi bo‘lganligini ko‘rsatadi²³. Xumbuztepadan kulolchilik va temirchilik ustaxonalarning topilishi ilk temir davrida Xumbuztepa hunarmandchilik markazi bo‘lgan degan xulosani beradi. Yodgorlikdan ikki xonali, bir pog‘onali o‘choq topilgan. Tadqiqotchilar uni temirchilik ustaxonasi bo‘lishi mumkin deb hisoblashgan. Uning poli va o‘choqning devorlari kuchli olov haroratidan yashil rangli tusga kirib qolgan²⁴. S.B.Bolelov fikricha, qadimgi davrlarda Xorazmda temir rudalari Sultan-Uvays tog‘idan olingan bo‘lishi mumkin. Bu yerdagi konlarda temir rudasi kam bo‘lsada o‘sha davrlardagi kosiblarga yetarli bo‘lgan deb xulosa beradi olim²⁵.

Qo‘yqirilgan qal’a va Tuproqqal’adan milodiy I-IV asrlarga oid sopol sopllar (temirchilik qo‘rasini havo bilan to‘ldirish jarayonida ishlatiladigan buyum) va qoliplar topilgan. Tuproqqal’ada qurol-yarog‘ tayyorlaydigan ustaxona aniqlangan bo‘lib, u yerda o‘q-yoy, o‘qdon bo‘laklari,sovut plastinkalari, o‘q uchi, uch parrakli bandli o‘q uchlari topilgan²⁶. Yodgorlikda bronza quyish ustaxonasi mavjud bo‘lgan²⁷.

Hunarmandchilikning boshqa sohalari.

Amudaryo havzasi hududlarida yashagan har bir aholi va ko‘chmanchilarning kiyimlari o‘ziga xos bichimga ega bo‘lgan. Bu hududlarda tikuvchilikning o‘ziga xos tarzda rivojlanganligini ko‘rsatadi. Oyoqlarida ham o‘ziga xos uslubda tikilgan poyabzal yoki etik bo‘lgan. Bu ma’lumotlar Persopol, Behistun qoya toshlaridagi bo‘rtma tasvirlar, tangalar, devoriy suratlar va turli zargarlik buyumlaridagi tasvirlarda berilgan. Uy hunarmandchiligiga ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish ham kiradi: un tayyorlash, non yopish, mehnat qurollari, bo‘yoq tayyorlash va

²³ К исторической топографии древнего и средневекового Самарканда. – С. 18.

²⁴ Баратов С., Матрасулов Ш. Археологические работы в южном Хорезме // Археологические работы в Узбекистане. 2002 г. –Ташкент. 2003. – С. 41-42.

²⁵ Болелов С.Б.Ранний этап становления ремесленного производства на территории Хорезма. – С. 9.

²⁶ Топрак-Кала-Дворец. ТХАЭЭ. XIV. –М.: Наука, 1984. – С. 216-220.

²⁷ Болелов С.Б. Гончарство древнего Хорезма: формы организации ремесла. – С. 68.

boshqalar. Uy hunarmandchiligidagi mahsulot oila yoki urug‘ ehtiyojlaridan kelib chiqib ishlab chiqarilgan.

Toshlarga ishlov berish bilan maxsus toshtaroshlar shug‘ullanganlar²⁸. Toshlarning ba’zi turlariga ishlov berish va olib kelish jarayoni murakkab hisoblangan. Trassologik tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, uzunligi 10 sm. va kengligi 22 sm. bo‘lgan yorg‘ichoqni tayyorlash uchun 10 soat vaqt ketgan. Tosh yadrolarni tayyorlash uchun 50-90 minutgacha vaqt sarflangan²⁹. Toshga, ko‘pincha uy sharoitida ishlov berilgan³⁰. Toshdan dehqonchilik va uy-ro‘zg‘orda foydalanadigan qurollar – yorg‘ichoqlar, kurant (bo‘yoq yanchiladigan tosh), o‘g‘ir dastalari va boshqalar tayyorlangan. Ular piketaj va abraziv texnikasi asosida ishlangan³¹. Tosh qurollari yordamida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaganlar. Ularda rang, don, un yanchilgan. Tosh qurollarining aksariyati qumtoshdan, aplit, bazalt (shishasimon vulkanik tog‘ jinsi), ohaktosh kabi turlaridan tayyorlangan³². O‘roq va boltalar maxsus qattiq toshlardan ishlangan.

Teriga ishlov berish va teri mahsulotlarini tayyorlashda kurak, sopoldan ishlangan o‘tkir teshish asbobi, to‘quvchilik uchun osma toshlar, sopol va toshdan ishlangan biokonik shakldagi o‘g‘irlar, tosh qurollari tayyorlash – bolg‘alar, yo‘nuvchi va silliqlovchi toshlar ishlagan. Tuxumsimon va sharsimon qayroqtoshlardan palaxmon uchun yadro tayyorlaganlar³³.

Qal’aliqir II yodgorligida toshtaroshlik hunarmandchiligi izlari aniqlangan. Buni Sulton-Uvays tog‘i hududlaridan topilgan tosh kapitel va Qalaligir I yodgorligidan topilgan ustunning ko‘zasimon tosh asosi bilan isbotlash mumkin³⁴. Kapitel odam yuzli shoxli qo‘chqorning oyoqlarini bukib o‘tirgan holatida tasvirlangan. Bu omad va hukmronlik belgisi Farnning tasviri bo‘lishi mumkin.

²⁸ Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. – С. 66.

²⁹ Ширинов Т. Орудия производства и оружие эпохи бронзы Среднеазиатского Междуречья. – Ташкент: Фан, 1986. – С. 17-18.

³⁰ O’sha asar. –B.65.

³¹ Семенов С.А., Коробкова Г.Ф. Технология древнейших производств. Л.: Наука, 1983. — С. 73.

³² Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. – С. 65.

³³ O’sha asar. –B.66.

³⁴ Рапопорт Ю.А., Незарик Е.Е., Левина Л. М. Хорезм в древности. – С. 31.

Bunday kapitellar Persopol saroyidagilarga o‘xshash bo‘lganligi sababli, tadqiqotchilar uni ahamoniylar davri bilan bog‘laydilar³⁵. S.R.Bolelov toshtaroshlar kimlar bo‘lganligi noma’lumligini ko‘rsatib, ahamoniylar davrida hunarmandlar davlat buyurtmalarini ham bajarganlar degan fikrni ilgari suradi. Yodgorlikdan marmar va mergel ohaktoshidan tayyorlangan mitti tarelka va qoplamlalar topilgan. Bu bir tomondan tosh yo‘nadigan tez aylanuvchi stanoklarning borligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan toshtaroshlik hunarmandchiligining rivojlanganligini ko‘rsatadi³⁶.

Qimmatbaho toshlarga, ayniqsa feruza toshiga ishlov berish bilan bog‘liq hunarmandchilik qadimiylari tarixga ega. Ilk temir davrida zargarlik buyumlari ishlab chiqarish jamoaviy xarakter kasb etgan. Qadimgi Xorazm hududidagi Amirobod va Quyisoy madaniyati yodgorliklaridan topilgan munchoqlar bu davrda zargarlik bilan shug‘ullanganliklarini ko‘rsatadi. Bu yerda, asosan, feruza va lojuvarddan munchoqlar tayyorlaganlar. Ular silindrik, bochkasimon, disksimon tarzda ishlangan. Shuningdek, bronzadan ham taqinchoqlar bo‘lgan. Quyusoy 2 manzilgohida olib borilgan tadqiqot ishlari jarayonida munchoq va shokilalar tayyorlash uchun yarim ishlov berilgan feruza toshlar aniqlangan, bu esa aholining zargarlik bilan shug‘ullanganliklarini asoslaysidi³⁷. Lolazor yodgorligidan feruza tosh bo‘laklari va munchoqlari³⁸, Dingilji qo‘rg‘onda zargarlik hunarmandchiligining izlari, Tuproqqal’a, Quyqirilganqal’a, Jonbosqal’a, Ayozqal’a yodgorliklaridan turli taqinchoqlar topilgan. Ayollar taqinchoqlarni bezak va tumor sifatida foydalanganlar.

“Amudaryo xazinasi” mil. avv. IV-II asrlarga oid bo‘lib, Vaxsh va Panj daryolarining Amudaryoga quyilish yerida joylashgan Taxtiqubod kechuvi yaqinidan 1877-yilda topilgan. Xazinada 1000dan oshiq Aleksandr Makedonskiy, salavkiy, kushonlar davriga oid tangalar, turli qimmatbaho toshlardan bilan bezatilgan

³⁵ Болелов С.Б. Ранний этап становления ремесленного производства на территории Хорезма. – С. 10.

³⁶ O’sha asar. –B.15.

³⁷ Вайнберг Б.И. Памятники Куюсайской культуры. – С. 24.

³⁸ Буряков Э.Ю. Поселение Лолазор – предшественник города на Афрасиабе. – С.18.

bilakuzuklar, bo'yintumor, zirak, uzuklar, marjonlar, turli hayvonlarning oltin haykalchalari, fantastik hayvonlar aks ettirilgan turli taqinchoqlar, mahorat bilan oltindan ishlangan otliq arava va boshqa buyumlarning ishlanish uslublari o'sha davr zargarlarining yuksak mahoratidan darak beradi. Bu zargarlik buyumlari ishlab chiqarishda ahamoniylar, yunon-baqtriya, skif va mahalliy xalqlarning uslublari uyg'unlashgan holda ishlangan³⁹. Amudaryo xazinasi olimlar fikricha, Baqtriyadagi Anaxita ibodatxonasiga tegishli bo'lib, xazina topilgan joy qadimgi Taxti Kubod shahri ekanligi o'z isbotini topgan⁴⁰. Arxeologlar bu shaharni Taxti Sangin deb atashadi. Amudaryo xazinasi bugungi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda.

Bu ma'lumotlar qadimgi davrda dehqonchilik o'lkalarida ham chorvador qabilalarda ham zargarlik buyumlari yuqori baholanib, ularning ishlanish jarayoniga alohida e'tibor bergenliklari anglatadi. Ayniqla, yuechjilar va kushonlar imperiyasi davrida zargarlik buyumlariga e'tibor yanada yuqori bo'lgan. Zargarlik buyumlari orqali ehsonlar qilish bilan birga unda o'zlarining diniy e'tiqodi bilan bog'liq jarayonlarni ham ifoda qilishgan.

Amudaryo havzasi hududlarida yog'ochsozlik, shishasozlik, suyakka ishlov berish, haykaltaroshlik, musiqa asboblarini tayyorlash kabi hunarmandchilikning turlari ham bo'lgan. Qal'aliqir II yodgorligidan yog'ochdan ishlangan idishlar ham topilgan. Yog'ochlarga ishlov berishda turli kesish asboblari – stanoklardan foydalanganlar⁴¹. Bu esa Xorazmda yog'ochga ishlov berish rivojlanganligini ko'rsatadi. Suyakka ishlov berish kosibchiligi ham mavjud bo'lgan. Ba'zi yodgorliklarda suyakdan ishlangan buyumlar saqlanib qolgan. Tuproqqa'aning shox va suyakka ishlov berish bilan bog'liq ustaxonasi bo'lgan⁴². Mil.avv. II asrdan

³⁹ Dalton O. M., *The treasure of the Oxus*, 3 ed., –L.: 1964.

⁴⁰ Сохибназаров М. Д. Поиски места обнаружения амударьинского клада. // Вестник ТГУПБП №2(42). 2010. – С. 96.

⁴¹ Болелов С. Б., Двуреченская Н. Д. Комплекс деревянных предметов из раскопок культового центра Калалы-Гыр 2 // РА. № 3. –М.: 2002. – С. 142–143.

⁴² Городище Топрак-кала. ТХАЭЭ. Т. XII. М.: Наука. 1981. – С. 139.; Болелов С.Б. Гончарство древнего Хорезма: формы организации ремесла, – С. 68.

Buyuk ipak yo‘li faoliyatini boshlagan davridan keyin xalqaro savdoda hunarmandchilik buyumlariga ham talab oshgan.

XXI asr insonlari antik davr Xorazm va boshqa O‘zbekiston hududidagi qadimiy shaharlarning hunarmandchilik sohlarini bilishlari lozim. Ajdodlarimiz qaysi sohalar bilan shug‘ullanganliklari juda ham qiziqarli. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish uchun qaysi sohada bo‘lmasin o‘z hissamizni qo‘sishimiz lozim. Zero, shu yurtda qadimgi ota-bobolarimiz yashab o‘tgan, vatanimzning rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olishiga o‘z hissamizni qo‘s Shaylik!

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. –Ташкент: Фан, 1987.
2. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. (в связи с историей возникновения и развития орошаемого земледелия). –М.: Наука, 1969 г.
3. Ширинов Т. Орудия производства и оружие эпохи бронзы Среднеазиатского Междуречья. –Ташкент: Фан, 1986.
4. Болелов С.Б. Ранний этап становления ремесленного производства на территории Хорезма. (вторая половина I тыс. до н.э.) / Приаралье на перекрестке культур. –Самарканд–Ташкент: МИЦАИ, 2013 г.
5. Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода. Труды ХАЭЭ вып. IV. – М.: Изд–во АН СССР, 1959 г.
6. Воробьева М.Г., Лапиров-Скобло М.С., Неразик Е.Е. Археологические работы в Хазараспе в 1958–1960 гг. // МХЭ. М.: Наука, 1963. Вып.6.
7. Хорезм в истории государственности Узбекистана. Ташкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2013 г.
8. Болелов С.Б. Гончарные производства Средней Азии во второй половине I тыс. до н.э. - первой половине I тыс. н.э. (структура и система размещения) // РА. 2006. № 3.

9. Ғуломов Я.Ғ Хоразмнинг суғорилиш тарихи. (қадимги замонлардан ҳозиргача). –Ташкент: Фан, 1959-йил.
10. Баратов С., Матрасулов Ш. Археологические работы в южном Хорезме // Археологические работы в Узбекистане. 2002 г. –Ташкент. 2003.
11. Топрак-Кала-Дворец. ТХАЭЭ. XIV. –М.: Наука, 1984.
12. Болелов С.Б. Гончарство древнего Хорезма: формы организации ремесла. (VI в.до н.э. –IV н.э.). //ЭО. №2. 1997.
13. Семенов С.А., Коробкова Г.Ф. Технология древнейших производств. Л.: Наука, 1983.
14. Рапопорт Ю.А. Хорезм в древности. /Рапопорт Ю.А., Незарик Е.Е., Левина Л. М. В низовьях Окса и Яксарта. Образы древнего Приаралья. –М.: Индрик, 2000.
15. Сохибназаров М. Д. Поиски места обнаружения амударьинского клада. //Вестник ТГУПБП №2(42). 2010.